

YEVROPA VA O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOLLAR OBRAZI

G'ofurova Madinaxon Odiljon qizi

ToshDO'TAU TNA (ingliz tili) fakulteti, +998777092204

Annotatsiya: *Maqola Yevropa va o'zbek adabiyotidagi ayollar obraziga bag'ishlangan. Jahon adabiyotiga bu qahramonlarning kirib kelishi, ulardagi his-tuyg'ularning ochib berilishi o'rganilgan. Yozuvchilarning ideal ayollar haqidagi qarashlarini o'z qahramonlariga ko'chirganlari misollar orqali yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *ideal ayol qiyofasi, sevgi, jasorat, sadoqat, klassik adabiyot, jahon adabiyoti.*

Abstract: *The article is devoted to the image of women in European and Uzbek literature. The entry of these heroes into world literature, the revelation of their emotions, was studied. The writers transferred their ideal women's views to their heroes through examples.*

Keywords: *ideal female image, love, courage, loyalty, classic literature.*

Adabiyotda ayol obrazlarining his-tuyg'ulari qanday tasvirlanadi? Ular reallikka qay darajada yaqin? Erkak yozuvchilar yaratgan ideal ayol qahramonlar qanday xususiyatlarga ega? Ular orqali o'quvchilar nimalarni anglashlari mumkin?

Adabiyotda ijodkor o'z orzu-intilishlarini, fikr-mulohazalarini, his-tuyg'ularini, insoniy va ilohiy muhabbat va e'tiqodini so'z orqali ifodalaydi. Shu sababli ham ularni "so'z san'ati ustalari" deb ataymiz. Bu san'atda ayol qahramonlar qadimdan yetakchilik qilib kelmoqda.

Klassik adabiyotda ayol obrazlarini olib kirishga birinchi urinishni qadimgi yunon shoiri Homerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida uchratishimiz mumkin. Homer qadimgi yunon ayollariga xos sodiqlik, mehribonlik kabi bir qancha hislatlarni "Iliada"ning qahramoni Andromaxa orqali ko'rsatib beradi. Qadimgi yunon an'analari ideal ayol va ayolning asosiy ajralib turadigan xususiyati - u jasoratli eri uchun doim tashvishda yashaydi. Qadimgi yunon adabiyotidagi bu turdagi qahramonning taqdiri ko'pincha chuqur fojiali bo'lib, uning buyukligi fojia orqali gavdalanadi. [1].

O'rta asr oxiri va yangi davr boshlarida buyuk Florensiya shoiri Dante Yevropa adabiyotida ayol obrazlarini ifodalash an'analari yangi ruh kiritdi. U o'zining asosiy asari - "Ilohiy komediya"da jasoratli Beatriche obrazini yaratib, ayolni ilohiy poydevorga ko'tardi. Dantening deyarli barcha asarlari Beatrichedan ilhomlangan va unga bag'ishlangan. Dante o'zining marhum sevgilisiga nasroniylikning eng oliy, eng muqaddas ayoli - Xudoning onasi sifatida murojaat qiladi. Shu tariqa ayol sevgisi Dante tomonidan ilohiy va qutqaruvchi Sevgi darajasiga ko'tariladi. Jahon tarixida biron bir shoir biror ayol haqida bunday so'zlarni yozmagan edi. Yangi davr va ma'rifat davrida

Yevropa adabiyotida ayol obrazlarining namoyon bo'lishi ayollarning huquqlari va muammolari, jamiyatdagi ayollarning o'rnini ko'rsatib beradi.

Keyinchalik ayol obrazini o'z asarlariga kiritish ommalashib ketadi. Misol uchun, Lev Tolstoyning yirik asari «Urush va tinchlik» romanidagi eng jozibali ayol obrazlaridan biri, bu shubhasiz, Natasha Rostovadir. Hayotga tashna bu qiz hayratlanarli darajada ezgulik, haqiqat, san'at va tabiatning go'zalligini his qilardi. Tolstoy Natashani g'ayrioddiy tabiatga ega ayol sifatida tasvirlaydi. Umuman olganda, yozuvchining fikriga ko'ra, ayol aql bilan yashamasligi kerak, sezgirlik va samimiylik uning aqli o'rnini bosadi. Tolstoyning ideal ayol haqidagi g'oyalarini Natasha timsolida to'liq ko'rsatib beradi.[1]

Rossiya adabiyotida ham ayol va muhabbat obrazlari XVIII asrning oxiri-XIX asr boshlarida yuksak darajada rivojlana boshladi. Ayolning unutilmas va ideal qiyofasini A. S. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» romanida - Tatyana Larina obrazi orqali ko'rishimiz mumkin. Shoir ushbu romanda qahramonni nihoyatda sodda, ammo oilasiga vafodor, jozibali va betakror ayol sifatida taqdim etadi.

Yana bir rus yozuvchilaridan biri Aleksandr Grin o'zining «Alvon yelkanlar» asarida ayolning qanchalik sadoqatli, sodda va orzumand ekanligini Assol obrazi orqali ifodalab beradi. U taqdir hukmi ostida yashaydi: alvon yelkanlar orqali o'z shahzodasini kutadi, jamiyatida begona bo'lishiga qaramay samimiyligini va bolalarcha soddaligini saqlab qoladi. Dunyoni romantik ruh bilan idrok qila oladigan ulug' yozuvchi Aleksandr Grin bu qissasida oddiy, ammo kuchli sevgini hikoya qiladi. Ko'plab qiyinchiliklarga va tuhmatlarga qaramay qiz o'z sevgisini sadoqat bilan kutadi. Asar yakunida qiz orzusining amalga oshishi qissani sevimli bo'lishiga sabab bo'ladi.

Jahon adabiyotida bu kabi kuchli ta'sirga ega ayol obrazlar ko'plab topiladi. O'zbek adabiyotidagi ayol obrazlar deganda esa avvalo, ko'z oldimizga Abdulla Qodiriyning Kumush, Zaynab, Ra'no obrazlari keladi. «Mehrobdan chayon» romanida Ra'no obrazi yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan. Ra'no muhabbati misolida yozuvchi yosh yuraklarga kuch, jasorat bag'ishlaydigan haqiqiy ayol sevgisini tasvirlaydi. Ra'no og'ir ahvolga tushgan paytda xon changalidan qutulish yo'lini qidiradi. Buyog'da sevgilisi Anvarga yordamlashadi. Anvar esa o'z harakatlarida Ra'no bilan maslahatlashib turadi. Shu tarzda Ra'no obrazi asarda aql-idrok va mardlik jihatidan erkaklar bilan teng qo'yiladi. Bunga oddiygina sevgining kuchi sababdir. Ra'noga xalq, millat qayg'usi emas, o'z sevgisi, sevgilisidan ajralib qolish xavfi jur'at baxsh etadi. «O'tkan kunlar» asaridagi Kumush obrazi esa ibo-hayosi, kuchli irodasi, o'qishimli ekani bilan o'quvchi mehrini qozonadi. O'zbek ayollarining jasorati, sadoqati bu obrazlar orqali to'liq ochib beriladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida esa Hamid Olimjonning «Zaynab va Omon», «Oygul bilan Baxtiyor» asarlari yorqin misol bo'la oladi. . Oygul o'z hurligi yo'lida eng qaltis choralardan ham cho'chimay, qiz bola boshi bilan maqsadi sari dadil va ongli intiladi. U o'zining «peshonasi sho'r»ligiga ko'nmagan, o'z xalqi hayotini yaxshi

tomonga o'zgartirish uchun kurashgan qiz sifatida tasvirlanadi. "Oygul bilan Baxtiyor" dostonida ijodkor hech o'rinda Oygulga nisbatan «sho'rlik», «bechora» degan so'zlarni ishlatmaydi. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, u o'z orzusiga erishish yo'lida hech bir qiyinchilikdan qo'rqmaydi. Adib Oygul timsolida barcha o'zbek ayollarining matonatini, jasoratini to'laqonli ochib beradi. Oygul yurtdoshlarini ozodlikka olib chiqdi. Tadbirkor, erksevar Oygulning oqilona harakatlarigina voqealarning aynan shu tarzda xotimalanishiga zamin yaratadi.

Ayol obrazi nafaqat nasriy asarlarda, balki nazmda ham uchraydi. Masalan, shoir Xurshid Davron she'riyatida ayol timsoli goh ona, goh sevikli yor, goh ayyor qiz, goh yetib bo'lmas orzu sifatida gavdalanadi. Masalan, uning quyidagi she'rini olsak:

Men sevaman shivirlar ayol –

Kirlaringni yuvib beraman.

Dazmollayman ko'ylaklaringni

Seni quchgan qo'llarim bilan.

Demak, ayol muhabbati tufayli bu qo'llar faqat quchishga emas, balki o'z yorining koriga yarashga qodir.

Bir kun tongda to'shakda yotib

Jilmaygancha shivirlasam, bas.

“Yuraginning ostida kimdir

Xuddi sendek olmoqda nafas”. [5.18.].

Ko'rinadiki, Xurshid Davron she'rlarida shoirning yoki lirik qahramonning ayolga bo'lgan turli xil munosabati ifodalangan. Ayol har qanday sharoitda ham go'zallik va muhabbatning timsoli bo'lib qolishi she'rda yaxshi aks etgan.

Adabiyotda ayol qahramon, albatta, har qanday asarda mavjud. Asrlar osha bu obraz shakllanib kelmoqda. Klassik yozuvchilar ayollarning mohiyatini va murakkab ayol kechinmalarini iloji boricha real tasvirlashga intilishgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan shoir va yozuvchilarimiz o'z asarlari orqali ayol siyratini anglashimizga, ular orqali bizni tarbiyalashga intilishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Antipenko A.P. «Mifologiya bogini». M.: Lodomir, 2012.
2. L.N. Tolstoy. “Urush va tinchlik”. M., 1981.
3. “Oygul bilan Baxtiyor”. Hamid Olimjon. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti Toshkent 1999.
4. “Alvon yelkanlar”. Aleksand Grin. Toshkent Yoshlar matbuoti, 2023. Rus tilidan Fozil Tilovat tarjimasini.
5. Xurshid Davron. “Bahordan bir kun oldin”. Toshkent: Sharq, 1997.